

## BOG'DORCHILIK TERMINLARINING ETIMOLOGIK KELIB CHIQISHI

A. Diyarov <sup>1</sup>*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada bog'dorchilik terminlarining etimologik kelib chiqishi, hamda etimologik bosqichlari tahlil qilinadi.

*Kalit so'zlar:* overwatering, underwatering, mulching, compost, dressing, topping.

Biz bilamizki har bir terminning etimologik kelib chiqishi bo'ladi. Shunday ekan ingliz tilidagi bog'dorchilik terminlarining ham asl kelib chiqishi mavjud. Etimologik bosqichi: Mazkur terminning ingliz tiliga kirib kelishi 4 bosqichdan iborat. Dastlabki bosqich, drupa lotincha so'z orqali; o'rta lotin tili davrida zaytun va bodomga nisbatan ushbu leksik birlik ishlatilgan; Fransuzlar esa o'rta lotin tilidan o'zlashtirib drupe tarzida o'zlarining tillariga kiritadi hamda Ingliz olimlari bu so'zni XVIII asrning boshlarida ingliz tiliga kirib keldi.

Tilga ma'nosi jihatdan ta'sir qilishi: Ushbu drupe atamasi odatda ichida danagi bor mevalarga nisbatan qo'llaniladi, ya'ni mazkur termin danaklilar ma'nosida qo'llanilishining guvohi bo'lindi.

Ingliz tilidagi bog'dorchilik terminlari orasida o'simliklarni o'stirish va parvarish qilish mavzuviy guruhiga oid leksik birliklar ham uchraydi.

Overwatering, underwatering, mulching, fertilizer, manure, compost, top dressing, pruning, coppicing, weeding, transplanting, topping, Soil PH, loam kabi terminlar uchraydi.

Ular orasidan coppicing termiga ta'rif beradigan bo'lsak:

Kelib chiqishi: eski fransuz tilining couper= to cut so'zidan olingan.

Etimologik bosqichi: Eski fransuz tilining couper so'zi;

O'rta asrlar ingliz tilisida bu termin copice tarzida qo'llanilgan va bugungi kunga kelib, bu termini coppicing tarzida o'zlariga o'zlashtirib olganlar.

Tilga ma'nosi jihatidan ta'siri: mazkur terminning asosini coppice (o'rmon, buta) so'zi tashkil qiladi va jarayonni ifodalashi uchun – ing qo'shimchasi qo'shilishi natijasida coppicing termini hosil qilingan. Ushbu leksik birlikning ma'nosi ko'chirish deyilishi mumkin. Ingliz – ingliz izohli lug'atida mazkur terminga o'simliklarni ildizidan ko'chirib, boshqa joyga o'tkazish ma'nosida qo'llanilgan.

Xuddi shunday terminlar qatorida weeding terminini ham uchratish mumkin.

Kelib chiqishi: sof inglizcha so'z bo'lib, eski ingliz tilida wēod – yovvoyi o'simlik, giyoh ma'nosida qo'llanilgan.

Etimologik bosqichi: 2 davrni boshidan o'tkazgandan so'ng mazkur leksema shunday ko'rinishga keldi. Eski ingliz tilida yuqorida ta'kidlanganidek wēod tarzida qo'llanilgan bo'lsa, o'rta asrlar ingliz tilisida wede tarzida o'zgartirildi. Bugungi kunga kelib esa, mazkur terminning asosini weed leksikasi tashkil qiladi.

Tilga ma'nosi jihatdan ta'siri: bugungi kunga kelib, weeding termini jarayon harakati hisoblanib, bog'dorchilik tajribasida o'tlarni tozalash, o'tamoq, sug'irib tashlamoq ma'nosida qo'llanilmoqda. Ushbu termin ma'no ko'chirish xususiyatiga ega ekanligini inobatga olib, metaforik ma'nosi borligini, bunda weeding out tizim yoki guruhdagi biror noma'qul elementlarni olib tashlash ma'nosida ham ishlatilishi mumkin.

O'simlikni parvarishlash uchun tuproqqa yaxshilab ishlov berish kerakligini barchamiz bilamiz, shu nuqtayi nazardan, o'g'itlash bo'yicha ham bir nechta bog'dorchilik terminlarini uchratish mumkin. Jumladan, fertilizer, compost, manure, side dressing, nutrient deficiency kabi. Shular orasidan fertilizer terminini etimologik tahlilga tortadigan bo'lsak, quyidagi natijalarni olish mumkin bo'ladi.

Kelib chiqishi: Lotin tilidan olingan, fertilis – hosildor, mevali ma'nosida qo'llanilgan.

Etimologik bosqichi 3 davrni o'z ichiga oladi. Dastlabki, lotin tilidan olingan fertilis, o'rta asrlarda fransuz tilida ushbu termin fertiliser tarzida o'zgartirilgan.

XVII asrga kelib esa ingliz tiliga fertilizer tarzida ingliz tiliga qabul qilingan.

Ma'nosi jihatdan esa ushbu termin bugungi kunda o'simliklar uchun ozuqa bo'ladigan, hosildorlikni oshirishga yordam beradigan vosita ma'nosida qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu atama hozirda qishloq xo'jaligi sohasida ham bog'dorchilik sohalarda ham birdek foydalanilmoqda.

Barchamizga ma'lum bo'lgan bog'dorchilik va boshqa qishloq xo'jaligiga oid sohalarda qo'llaniladigan compost terminining etimologik tahlil qilinganda quyidagi ma'lumotlar olindi:

<sup>1</sup> Diyarov Akmal To'lqin O'g'li, SamDU Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

Kelib chiqishi bo'yicha ushbu termin lotin tilidagi componere so'zidan olingan.

Etimologik bosqichiga to'xataladigan bo'lsak, dastlab lotin tilidagi componere ya'ni birlashtirish ma'nosida qo'llanilgan. Eski fransuz tiliga esa Compōst tarzida kirib kelgan. Ingliz tiliga esa eski fransuz tilidan deyarli shakli va talaffuzi o'zgarmasdan olingan. Natijada, hozirgi zamonaviy ingliz tilida ham o'zgarmasdan foydalanilishi XIV asrlardan boshlanadi.

Ma'nosi jihatidan ushbu termin qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik sohalarida juda muhim o'rin egallaydi. Tuproq unumdorligini oshirish uchun organik moddalar aralashmasidan hosil qilingan unumdor vosita sanaladi. Tuproq bilan aralastirilib, mevali daraxtlarning tagiga to'kilsa, hosildorlik oshishiga xizmat qiladi.

Bog'dorchilik terminlarini ingliz tilidagilarini tahlil qilish jarayonida bir qiziq holatga ham guvohi bo'ldik, sababi, ayrim inson xislatiga oid bo'lgan barchaga mashhur leksik birliklarning o'simliklar bilan bog'liq tarjimalari yuzaga chiqdi. Shunday so'zlardan biri Honesty sanaladi.

Honesty (halollik, vijdon) ma'nosini beruvchi o'simlik bu Lunaria annua. Honesty atamasining asl kelib chiqishi ham lotin tilidan olingan honestus. Etimologik bosqichi 3 davrni o'z ichiga oladi. Ya'ni lotin, eski fransuz va hozirgi ingliz tili davrlari. O'rta asrlarning ingliz tilisida ham bu atama Honestie tarzida foydalanilgan.

Etimologik tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, dunyo bog'dorchilik terminlarining ingliz tiliga ko'chishi oson kechmagan, ingliz tiliga bog'dorchilik terminlari juda oson ko'chgan va talaffuz hamda imlo uchun juda qulay tarzda o'zlashtirishgan. Aslida, bunday terminlarni sof inglizcha deyish ham mumkin, buning asosiy sababi, lotin tilidagi o'zak bugungi kunda ingliz tilida keltirilgan o'zakdan butunlay farq qiladi, lekin shunda ham manbalar bunday terminlarni boshqa tillardan olinganligini ko'rsatilishi, ingliz tilining boshqa tillardan so'z olishini mahoratli desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1]. Stanforth Anthony W. "Effects of language contact on the vocabulary: an overview". In: Cruse, D. Alan et al. (eds.) – 2002 an international handbook on the nature and structure of words and vocabularies. Berlin / New York: Walter de Gruyter.

[2]. Hitchings Henry. *The Secret Life of Words: How English Became English*, – London: John Murray.- 2008.

[3]. Masimova L. *Words of native origin in english. the origin of english words. common indo-european and germanic word-stock. characteristic features of native words. P. 27-32*

[4]. Abulkasimovna, E. Z., & Leonidovna, M. N. (2023, March). *The lexical-semantic usage of professional lexemes in "Utgan kunlar" (" past days") by Abdulla Qadiri. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 20-22).*

[5]. Эрданова, З. А. (2021). *Замонавий лингвистикада инсон ва унинг фаолияти акс этилиши. Международный журнал искусство слова,4(5).*